



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Shermuxeimedov Rahmatulla Sadikovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti.

Fattoyeva Hanifa Rafqat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Email: khanifafatttoyeva97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish masalasi ICLHE (Integrated Content and Language in Higher Education) modeli misolida tahlil qilinadi. ICLHE yondashuvi – oliy ta’limda mazmun va til integratsiyasiga asoslangan o‘qitish tizimi bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy, kommunikativ va metodik tayyorgarligini kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Maqolada mazkur modelning nazariy asoslari, shuningdek, Doiz, natijalar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv o‘qituvchilarda til va fan mazmunini uyg‘un o‘zlashtirish, dars jarayonini ijodiy tashkil etish va talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: Integrativ yondashuv, ICLHE, EMI, kasbiy tayyorgarlik, mazmun va til integratsiyasi, o‘qituvchi kompetensiyasi.

IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Shermukhamedov Rakhmatulla Sadikovich

Доцент, Чирчикского государственного педагогического университета

Fattoyeva Khanifa Rafqat kizi

Master's student at Chirchik State Pedagogical University

Email: khanifafatttoyeva97@gmail.com

Abstract This article examines the improvement of pre-service teachers’ professional training through an integrative approach based on the ICLHE (Integrated Content and Language in Higher Education) model. The ICLHE approach represents a system of instruction in higher education that integrates content and language, aiming to develop teachers’ professional, communicative, and methodological competencies in a comprehensive manner. The results show that the integrative approach enables future teachers to effectively combine subject knowledge with language proficiency, organize lessons creatively, and establish productive communication with students.

Key words: Keywords: integrative approach, ICLHE, EMI, professional training, content and language integration, teacher competence.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Шермухамедов Рахматулла Садыкович

Доцент, Чирчикского государственного педагогического университета

Фаттоева Ханифа Рафкат кизи

Магистрант Чирчикского государственного педагогического университета

Email: khanifafatttoyeva97@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей на основе интегративного подхода на примере модели ICLHE (Integrated Content and Language in Higher Education). Подход ICLHE представляет собой систему обучения, основанную на интеграции содержания и языка в высшем образовании, и направлен на комплексное развитие профессиональной, коммуникативной и методической подготовки преподавателей. В статье анализируются теоретические основы данной модели, а также результаты, показывающие, что интегративный подход способствует формированию у учителей



навыков гармоничного усвоения языка и предметного содержания, творческой организации учебного процесса и эффективного взаимодействия со студентами.

Ключевые слова: интегративный подход, ICLHE, EMI, профессиональная подготовка, интеграция содержания и языка, компетентность преподавателя.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida integrativ yondashuv asosida darsni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash faqat fan mazmunini o’zlashtirish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda o’qituvchi ingliz tilida dars o’ta olish, fan mazmunini chet tilida tushuntirish, xalqaro hamkorlikda ishlash va madaniy kommunikatsiyani yo’lga qo’yish kompetensiyalariga ega bo’lishi kerak. Bu esa ICLHE yondashuvining dolzarbligini belgilaydi. Noeliya Ruiz-Madrid va Izabel Fortanet-Gomes (2024) tomonidan tahrirlangan Teacher Professional Development for the Integration of Content and Language in Higher Education asarida ICLHE modeli orqali o’qituvchilarning til va metodik tayyorgarligini integratsiyalash zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, Doiz, Lasagabaster va Sierra (2013) tomonidan tahrirlangan English-Medium Instruction at Universities: Global Challenges kitobida ingliz tilida o’qitish jarayonida o’qituvchilarning tilga oid tayyorgarligi, metodik yondashuvi va mazmun bilan til o’rtasidagi muvozanat masalalari keng tahlil qilingan.

Til darajasi muammosi: Ko’pchilik o’qituvchilar o’z fanini chuqur biladi, ammo ingliz tilida dars o’tishda til kompetensiyasi yetarli emas. Shu bois, ICLHE yondashuvi til va fan mazmunini birgalikda rivojlantirishga yo’naltiriladi. Mazmun va til muvozanati: O’qituvchilar dars jarayonida fanning mazmunini to’liq yetkazish bilan birga, tilni ham o’rgatish masalasida muvozanatni saqlashda qiynaladilar. Integrativ o’qitish bu muammoni hal etadi

Til qo’llab-quvvatlash tizimi: Universitetlarda mavjud bo’lgan til markazlari ko’pincha umumiy ingliz tili o’rgatishga yo’naltirilgan, ammo EMI va ICLH tizimi uchun maxsus metodik tayyorgarlik talab qilinadi.

ICLHE modeli integrativ yondashuvning amaliy ifodasidir. U o’qituvchining kasbiy tayyorgarligini bir necha yo’nalishda – til, mazmun, metodika va madaniyat – rivojlantiradi. ICLHE o’qitish jarayonida talaba markaziy o’rinni egallaydi va bilim o’zlashtirish jarayonida til va mazmunni uyg’unlashtiradi.

Doiz, Lasagabaster va Sierra asarlarida qayd etilganidek, ingliz tilida dars o’tish (EMI) jarayonida o’qituvchi nafaqat fan mazmunini yetkazadi, balki talabalar uchun til modeli sifatida ham faol ishtirok etadi. Bu yondashuv o’qituvchilarda til refleksiya, fan bo’yicha analitik fikrlashni va darsda interaktiv metodlardan foydalanish madaniyatini rivojlantiradi.

ICLHE yondashuvi shuningdek, o’qituvchilarni xalqaro ta’lim standartlariga moslashishga tayyorlaydi. Oliy ta’limda ingliz tili vositasida dars o’tish, talabalarning akademik tilni egallashi va ilmiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Integrativ yondashuv (ICLHE modeli) bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vositadir. Bu yondashuv o’qituvchida fan va til integratsiyasi orqali kompleks kompetensiyalarni rivojlantiradi. Tilni o’rganish va fanni o’qitish jarayonining birligi o’qituvchining ijodiy fikrlashini, kommunikativ madaniyatini va metodik refleksiya rivojlantiradi.

Kelgusida ICLHE modeli asosida ishlab chiqilgan modulli dasturlarni pedagogik oliygo’hlarda keng joriy etish, o’qituvchilarning til-metodik tayyorgarligini oshirish hamda xalqaro tajribalarga asoslangan qo’llanmalarni yaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ruiz-Madrid, M. N., & Fortanet-Gomes, I. (2024). Teacher Professional Development for the Integration of Content and Language in Higher Education. Routledge.
2. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(1), 470-475.
3. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 36-40.
2. Doiz, A., Lasagabaster, D., & Sierra, J. (2013). English-Medium Instruction at Universities: Global Challenges. Multilingual Matters.
3. Tiong, N. D. (2024). An integrative conceptual framework for analysing teacher learning. Professional Development in Education, 1–20.
4. Fazildjanova, N. (2025). Bo’lajak pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.



5. Хамеди, М. А. (2014). Интегративный подход к профессионально-педагогической подготовке будущих учителей. Современные проблемы науки и образования.

RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH USULLARI

Kulmirzayeva Zarina Urokboyevna

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: zarina.kulmirzaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini raqamli platformalar orqali tashkil etishning samarali usullari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, bulutli xizmatlar va interaktiv ta’lim resurslari yordamida o’quv jarayonini optimallashtirish, talabalarning o’z-o’zini rivojlantirish ko’nikmalarini shakllantirish masalalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: raqamli platformalar, mustaqil ta’lim, interaktiv texnologiyalar, metodik yondashuv, raqamli kompetensiya, o’quv faoliyati.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

Кулмирзаева Зарина Урокбоевна

Докторант Самаркандского государственного университета имени Ш. Рашидова

Email: zarina.kulmirzaeva@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные методы организации самостоятельной учебной деятельности студентов на основе цифровых платформ. С научно-педагогической точки зрения анализируются вопросы оптимизации учебного процесса с использованием цифровых технологий, облачных сервисов и интерактивных образовательных ресурсов, а также формирования у студентов навыков саморазвития.

Ключевые слова: цифровые платформы, самостоятельное обучение, интерактивные технологии, методический подход, цифровая компетентность, учебная деятельность.

ORGANIZATION OF STUDENTS’ INDEPENDENT LEARNING BASED ON DIGITAL PLATFORMS

Kulmirzaeva Zarina Urokboevna

PhD Student, Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Email: zarina.kulmirzaeva@gmail.com

Abstract. This article discusses effective methods for organizing students’ independent learning activities through digital platforms. From a scientific and pedagogical perspective, the study analyzes the optimization of the learning process using digital technologies, cloud services, and interactive educational resources, as well as the formation of students’ self-development skills.

Keywords: digital platforms, independent learning, interactive technologies, methodological approach, digital competence, learning activity.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni o’quv jarayoniga joriy etish talabalarning o’quv faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, informatika fanini o’qitish jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish raqamli ta’lim muhitining eng samarali yo’nalishlaridan biridir. Informatika — bu nafaqat nazariy bilimlar tizimi, balki talabalarda algoritmik tafakkur, amaliy dasturlash ko’nikmalari, hamda raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy fan hisoblanadi. Shu bois, mazkur fanni o’zlashtirishda talabaning mustaqil faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.